


Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-oktabr)

2018 yilning yanvar-oktabr oyida Viloyatda 1277 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 160 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 799 ta (7,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10191 tani tashkil etgan.


Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rinda tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,9 % savdoda, 12,0 % sanoatda, 9,4 % qurilishda, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,4 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 noyabr holatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
Sirdaryo viloyati bo'yicha	10933	10191	100	100
Oqoltin	434	405	4,0	4,0
Boyout	825	757	7,5	7,4
Sayhunobod	905	885	8,3	8,7
Guliston	827	741	7,6	7,3
Sardoba	401	383	3,7	3,8
Mirzaobod	798	735	7,3	7,2
Sirdaryo	1725	1575	15,8	15,5
Xovos	537	502	4,9	4,9
Guliston sh.	3424	3228	31,3	31,7
Shirin sh.	250	235	2,3	2,3
Yangiyer sh.	807	745	7,3	7,2

2018 yil yanvar-oktabr holatiga 1277 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 12,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shahrida (350 ta), Sirdaryo (196 ta), Sayhunobod (119 ta) va Yangiyer shahrida (104 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (27 ta), Xovos tumanlarda (65 ta) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (293 ta), sanoatda (210 ta), qurilishda (191 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (201 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (10 ta), axborot va aloqada (15 ta) hamda tashish va saqlashda (36 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 noyabr xolatiga			2017 yil 1 noyabr xolatiga			2018 yil 1 noyabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %
Sanoat	141	122,6	14,1	197	139,7	17,6	210	106,6	16,4
Savdo	299	99,3	29,9	258	86,3	23,1	293	113,6	22,9
Qurilish	72	85,7	7,2	126	175,0	11,3	191	151,6	15,0
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	179	177,2	17,9	209	116,8	18,7	201	96,2	15,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	47	94,0	4,7	90	191,5	8,1	85	94,4	6,7
Tashish va saqlash	124	364,7	12,4	69	55,6	6,2	36	52,2	2,8
Axborot va aloqa	33	110,0	3,3	17	51,5	1,5	15	88,2	1,2
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	83,3	0,5	11	220,0	1,0	10	90,9	0,8
Boshqa turlari	100	84,7	10,0	140	140,0	12,5	236	168,6	18,5

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 noyabr holatiga 8192 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2727 ta, oilaviy korxonalar – 88 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5068 ta, va boshqalar 309 tani tashkil etadi.


**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat
yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 106 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga yoki 21,7 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 79 tasi qo'shma korxonalar, 27 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 49 ta (46,2 %), Guliston shahar 22 ta (20,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Guliston, Xovos tumanlarida 1 tadan (0,9 %), Sardoba tumani, Shirin shahrida 2 tadan (1,9 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 72 ta (67,9 %), savdoda 11 ta (10,4 %) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 9 ta tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 4 ta (3,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,9 %) va qurilishda 5 ta (4,7 %) boshqa faoliyat turlarida esa 4 ta (3,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi

sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat turlariga to'gri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)**



faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 21 ta, Turkiya Respublikasi – 8 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 49 ta, Qozog'iston Respublikasi –6 ta, va Koreya Respublikasi – 5 ta korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




2018 yilning yanvar-oktabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 25 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11 taga ko'paygan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 18 ta, savdoda 1 ta, qurilishda 1 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta va boshqa faoliyat turlarida 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 8146 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 9,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2749 tasi (33,7 %) Guliston shahriga, 1325 tasi (16,2 %) Sirdaryo tumaniga, 716 tasi (8,8 %) Sayhunobod tumanida hamda 622 tasi (7,6 %) Yangiyer shahri hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8146 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2633 tasi (32,3 %) – savdoda, 1205 tasi (14,8 %) - sanoatda, 949 tasi (11,6 %) - qurilishda, 1203 tasi (14,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 554 tasi (6,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 543 tasi (6,7 %) - tashish va saqlashda, 149 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, 81 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 829 tasi (10,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktabr holatiga 1139 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 7,7 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahrida (296 ta), Sirdaryo (179 ta), Sayhunobod (115 ta) va Boyout tumanlarida (92 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (24 ta), Sardoba (55 ta) hamda Xovos (58 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (293 ta), sanoatda (210 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (200 ta) va qurilishda (190 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (10 ta), axborot va aloqada (15 ta) hamda tashish va saqlashda (36 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 94 tani tashkil etib, ulardan 88 tasi yoki 93,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha 28,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 43,2 % yoki 38 tasi sanoat, 21,6 % yoki 19 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,2 % yoki 16 tasi savdo, 9,1 % yoki 8 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,1 % yoki 1 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hissasiga, 5,7 % yoki 5 tasi boshqa turlar xissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Viloyat statistika boshqarmasi
statistik registrlarni yuritish bo'lumi
boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: K.Yusupov
(0367) 225-31-00